

## O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA ALISHER NAVOIYNING „LISON UT-TAYR” ASARINING O'RNI, BOSH G'OYASI VA BADIY AHAMIYATI

Namozova Mo'tabar Sayriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15059771>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asar yaratilish tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati, qushlar orqali tasvir etilgan insoniy sifatlar, asarning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni, didaktik g'oyalari, olam haqiqati va unsurlari, motivlar va badiyy tahlil vositalari haqida ma'lumotlar jamlangan.

**Kalit so'zlar:** Semurg', to'rt olam, nazmiy tahlil, odam jinsi, asar tarixi, qushlar uzri, Hudhud donishmandligi, yetti vodiy talqini.

### THE PLACE, MAIN IDEA AND ARTISTIC SIGNIFICANCE OF ALISHER NAVOI'S WORK "LISON UT-TAYR" IN THE HISTORY OF UZBEK LITERATURE

**Abstract.** This article summarizes information about the history of the creation of the work and its significance today, the human qualities depicted through birds, the role of the work in the upbringing of the younger generation, its didactic ideas, the reality and elements of the world, motifs, and means of artistic analysis.

**Keywords:** Semurg, four worlds, poetic analysis, human gender, history of the work, excuses for birds, Hudhud wisdom, interpretation of the seven valleys.

### МЕСТО, ОСНОВНАЯ ИДЕЯ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОЭМЫ АЛИШЕРА НАВОИ «ЛИСОН УТ-ТАЙР» В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

**Аннотация.** В статье содержатся сведения об истории создания произведения и его значении в наши дни, о человеческих качествах, изображенных через птиц, о роли произведения в воспитании подрастающего поколения, о его дидактических идеях, о реальности и элементах окружающего мира, о мотивах и средствах художественного анализа.

**Ключевые слова:** Семург, четыре мира, поэтический анализ, человеческий пол, история произведения, оправдания птиц, мудрость Худхуда, толкование семи долин.

Har bir asar yaralibdiki, voqealik unda mujassam bo'ladi. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu asar necha yillardirki kitobxonlar qo'lidan-qo'liga o'tib keladi. 1498 -1499 yillarda yaratilgan bo'lib umumiyligi jihatdan eng yetuk inson kamolotini qushlar orqali ochib beradi. Asar muqaddimasida tasavvufiy qarashlar uchraydi. Navoiy ulug' maqsadda ish boshlagani Farididdin Attor asaridek jahongashta asar yozishni orzu qiladi va bu istak amalga

oshadi. Asar bosh g'oyasida vujud yagonaligi baralla kuylanadi. Asarda aytilganidek, bolalarga yaqin olam bu qushlar olamidir. Navoiy asarda Foniyl taxallusi bilan ijod etdi Buning sababini esa asar maqtasida shunday bayon etadi: Foniyl bo'lmasdan turib ish nihoyasiga yetmaydi.va ikkinchi sababi, qushlarni Fano vodiysiga qo'ndirgani. Asarda to'rt Xalifani tasvir etish bilan birga beshinchi etib o'z ustozi Farididdin Attorni ham tilga oldi. Har bir hikoyati o'zgacha maroq va ma'rifat baxsh etgan bu asarda to'ti, kabutar, qimri, shunqor, bulbul, tovus, kaklik , tazavvur, kabutar, shohboz uzrlari aks etgan. Asar keng ko'lamlı didaktik g'oyani ilgari suradi to'ti faqat nozaninlar qo'lidan taom yeishiga o'rgangan bo'lib, bu fazilat insonlarga xos yalqovlikni ifodalaydi desak noto'g'ri bo'lmaydi. Bir kuni guliston, bo'ston, o'rmon, dengiz va biyobon qushlari majlis tuzadilar. Majlisda qushlar o'rin topolmay, parokanda bo'lishadi. Shunda Hudhud ularga bir yo'lboshchi kerak ekanligi, uning nomi Semurg' ekanligi haqida xabar qiladi. Barcha qushlar Semurg' huzuriga yo'l olishadi. Hudhud donishmand inson obrazini yaratadi turli hikoyatlar bilan qishlarni to'g'ri yo'lga chorlaydi. Yo'l bo'yli qushlar savol bilan hudhudga murojaat etadi. Qushlardan biri nega sen bizdek bir jinsdansan, lekin ko'p narsalarni bilasan deganda, hudhud menga Sulaymonning ko'zi tushgan deb javob beradi. Turli xil falsafiy rivoyatlar qiladi. Inson kamoloti yorqin aks etgan eng yirik asardir. Insoniyat umrini to'g'ri yumishlar ila o'tkazishi, nafsni yengish, yomon odatlardan yiroq bo'lish, o'tkinchi ayshishratlarga berilmaslik kabilarni eng chiroqli zarhal harflar bilan bitgan. Insonlarga qarata nafs sizni eshak qilib minishiga yo'l qo'y mang deya nasihat qiladi. Semurg' agsonaviy qush timsoli shu qadar aks ettirilganki, uning oltin patlari va bir pari Chin yurtiga tushgani haqida ham keltirilgan . Qushlar Semurg'ga yetishishni orzu etadi yo'l qiyinchiliklarga to'la bo'ladi safarga chiqqan qushlardan atiga o'ttiztasi tirik qoladi va Semurg' nomini oladi. Alisher Navoiy o'zini chumolig o'xhatgani, qushlarning savollariga hudhud javobi orqali dunyo haqiqatlari aks ettirilgan falsafiy va badiiy asardir. Yetti vodiyning Birinchisi Talab. Bu vodiyya fil kelsa, pashshadek, Arslon chumoliga aylanadi, ishq vodiysida ishqqa shunday ta'rif beriladi, "ishqni shu'la dema masha'ala degil". Keyingi vodiyy ma'rifat bunda inson bilimlarni egallab, turli yo'llar kesib o'tadi. Istig'no vodiysida jannat mevalari va u yerning sidra va to'bi daraxtlari borligi aytiladi. Tavhid vodiysida inson butun yo'lni yakka o'zi bosib o'tadi. Hayrat vodiysida esa inson tili gung o'zi lol bo'ladi. Faqru Fano yo'qlik vodiysidur unda inson umri madh etiladi.

Hayotning to'rt unsuri: suv, havo, tuproq, olovdan iborat ekanligi, olti tomon va yetti ko'kni nomlarri keltiriladi. Xotima qismida yoshlikni gullagan chog'larini behuda o'tkazmaslik hqidada aytib o'tadi va o'zining besh yoshlik chog'idagi kitobga muhabbat haqida keltirib o'tadi va o'zoni Cho'loq chumoli sifatida nisbatlaydi. Asar tom ma'noda haqiqiy ma'nolar xazinasi sirli hikoyatlar va mavjudotlar tarixiy shaxslar qalamga olinadi, bu esa asar ko'rkiga jilo baxshida etadi.

Xususni, musiqa fani yaralishini qaqnus qushi bilan bog'laydi, u bor alamlari bilan kuylaydi tumshuqlarida teshiklari borligi uchun uning alamli xonishi insonlarga kuy bo'lib eshitiladi va bu qushni kuyi Pifagor qulog'iga chalinadi, Natijada musiq fani kashf etiladi. Har bir hikoyatda Navoiy sirli bir mo'jozani yashirin etadi, asarni o'qigan kitobxon zavqi yanada oshadi. Vodiy sirlari u yerdagi voqealar, qushlarni boshidan o'tkazgan sinovlar, afsonaviy hikoyatlar, ishq maslasi, tasavvuf g'oyalari yorqin didaktik uslublar orqali bayon etiladi.

Xulosa qilib aytganda, qushlar olami nafaqat bolalarga yaqin olam balki barcha olamlar bir-biriga yaqindir. Insoniyat maqsadi bu dunyo yaralishi, uning tarkibiy qismlari haqida qushlar orqali yorqin tasvirlangan. Har bir qalamga olingan mavzular esa bugungi kun uchun ham ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Asar yakuniga yetgan o'quvchi yomon odatlarini tashlab yaxshi xulq egasiga aylanadi. Zeroki asarda barcha badfe'l xususiyatlар oxiri yaxshilik bilan tugamaydi.

Falsafiy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalaydigan falsafiy ruhdagi bebahо, shoh asardir.

## REFERENCES

1. Alisher Navoiy „Lison ut-tayr“, Toshkent 1991
2. Lison ut-tayr " Alisher Navoiyning 20 jildli Mukammal asarlar to'plami 12-j. (T., 1996) dan o'rin olgan.
3. Sharipov Sh., Alisher Navoiy „Lison ut-tayr“ dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, T., 1982;
4. Sultonmurod O., Naqshband va Navoiy, T., 1996.[2]